

**AMARANT(AMARANTUS) YETISHTIRISHDA SUG‘ORISH
MUDDATLARINING AHAMIYATI VA NIHOLLARNING UNIB
CHIQISH MUDDATLARI**

Xayitov Mamadiyar Allayorovich

q,x,f,n. dotsent, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat
Universiteti Agrobiotexnologiyalar va oziq – ovqat xavfsizligi instituti.

maxayitov1965@mail.ru

Alisherov Xasan Alisher o‘g‘li

magistranti, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat
Universiteti Agrobiotexnologiyalar va oziq – ovqat xavfsizligi instituti,

alisherovhasan00@gmail.com

ANNOTASIYA

Ushbu maqolada Amarant(Amarantus)ning sug‘orish tadbirlarini meyorda qo‘llash natijasida suvning o‘simlikning o‘sishi, rivojlanishi, hosildorligiga ta’siri haqida ma’lumotlar keltirilgan. Hozirgi paytda suv va energiya tejamkor ekinlarni ekish, ekologik toza, sifatli ekinlarni yetishtirish dolzarb masalalardan biridir.

***Kalit so‘zlar:** Suv, amarant, o‘shish, urug‘, harorat, ekish qoidalari, begona o‘t, biogumus, nihol, sug‘orish mudati.*

KIRISH.

Hozirgi paytda yuqori hosilli, suvtejamkor, iqlim o‘zgarishlarining turli omillariga moslashuvcha, suv kam talab qiladigan, jahon bozorida xaridorgir, chorvachilikda to‘yimli oziqa beradigan, dorivor va yuqori biommasa beradigan universal o‘simliklarni ekib yetishtirish davir talabi hisoblanadi. Shu bilan birga sug‘oriladigan yerlardan unumli foydalanish uchun ekinlarninig qisqa davir mobaynida yuqori xosil beradigan turlarini topish ham muhim masalalardan biridir. Bu borada. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 1-martdagi PQ-144-sonli qarorida “Qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” 1-2 ilovlarda keltirilgan bandlar asosida qimmatbaho o‘simliklarni yetishtirsh maqsadga muvofiqdir. Ana

shunday o‘simliklardan biri amarant hisoblanadi. Amarant (*Amarantus L.*) – bir yillik o‘simlik hisoblanadi. Odatda O‘zbekiston sharoitida manzarali gul sifatida qo‘llanib kelingan va hozirgacha gultojxo‘roz nomi bilan pastak bo‘yli navlari mahalliy xalq tomonidan o‘stirib kelinmoqda. XXI- asrning istiqbolli o‘simliklaridan biri hisoblanadi. AQSH ning barcha shtatlarida, Xitoy, Hindiston va Avstraliyada amaliyotga keng joriy etilgan o‘simlik hisoblanadi. Kanadada amarant oziq-ovqat sanoatiga joriy etilgan. AQSH va Rossiya Federatsiyasida ushbu o‘simlikni o‘rganish va ular asosidagi mahsulotlarni amaliyotga keng joriy etish bo‘yicha maxsus davlat dasturlari ishlab chiqilgan.

TADQIQOT MATERIALLARI, METODOLOGIYASI VA NATIJALARI

Amarant issiqsevar va yorug‘sevar o‘simlik hisoblanadi. Amarant o‘simligining o‘suv davrining dastlabki bosqichida sekin rivojlanadi. Keyinchalik o‘sishi va rivojlanishi yaxshi bo‘lib boradi. Tuproq mumkin qadar mayin bo‘lishi, egatlar sabzinikiga o‘xshab sayoz va iydirib sug‘orishga qulay bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston M, Ulug‘nor, Marhamat va Andijon navlari ishchi kuchi yordamida xar bir gektar maydon uchun o‘rtacha 1-2 kg amarant urug‘i ekiladi. Urug‘larni tuproqqa ekishda namlangan g‘alvirdan o‘tkazilgan qum, chirigan go‘ng, superfosfat va boshqa mahsulotlardan urug‘ni to‘ldiruvchi sifatida ular 1:10 yoki 1:5 nisbatda foydalanildi.[1]. Tajriba dalasida olingan egatlarning kengligi 30 sm olindi. Ekishdan oldin yer begona o‘tlardan tozalanadi. Amarant maysalari yer yuziga chiqqanidan so‘ng dastlabki 2-3 haftada begona o‘tlarni yo‘qotish, qator oralarini yumshatish va yagana qilish ishlariga qaratildi. Urug‘ ekishdan oldin tuproq harorati 10-12 C⁰ da ekishga tavsiya qilinadi. Dala tajribalari 2023-yilning aprel-may oylarida Samarqand viloyatining Jomboy tumanidagi tashkil etilgan maxsus tajriba yer uchastkasida, o‘tloqi-bo‘z tuproqlari sharoitida olib borildi va har bir tajribalar bo‘yicha tahlil natijalari o‘rganildi. Amarant ekiladigan maydon 21m² tashkil etadi. O‘simlikni ekishda sharoit va muddatlarni to‘g‘ri belgilash urug‘larning qiyg‘os unib chiqishini ta‘minlovchi omil bo‘lib hisoblanadi. Shuni ko‘zda tutish lozimki, urug‘ tushgan tuproqda uning unib chiqishi uchun issiqlikdan tashqari uning urug‘i qattiq

parda bilan qoplanganligi bois, yetarli miqdorda namlik bo'lishi kerak. Tajriba sug'orish mudati asosida 2 ta varyantda qo'yildi.



1-rasm Agrotexnik tadbirlar.

Amarant o'simligini parvarish qilish murakkab jarayon bo'lmasdan barcha ekib o'stiriladigan o'simliklarning agrotexnikasiga o'xshash. Amarant o'simligining urug'larini ekishdan oldin biogumus bilan 1:10 nisbata aralashtirib 1.5 sm chuqurlikga ekildi. Ekishdan oldin tuproq mayin namlagan, qator oralari 30 sm qilib, urug'lar orasi esa 10 sm dan ekish egatning ustida amalga oshirildi. Agar urug' suv ketadigan yo'ldan ekilsa urug'larni yuvulib ketishiga sabab bo'ladi. Amarant urug'lari uyalab ekishda 2-3 tadan ekildi. Urug'larni ekib bo'lgandan so'ng sug'orish ekilgan urug' xudi sabzinikiga o'xshatib, zaxlatish talab qilinadi. Amarant urug'i birinchi sug'orishdan keyin orada har bir sug'orish mudatining oralig'i nazorat varyantda 3-4 kundi tashkil etdi, nazoratsiz varyantda 5-6 kundi tashkil etdi.



2-rasm. Nihollarning o'sib chiqan xolati.

Qatqaloq yerni har ikki varyantda 4-5 kunda yumshatish ishlari amalga oshirildi. Amarant o'simligi ekilgandan so'ng nazorat varyati 8 kunda unib chiqdi. Nazoratsiz varyantda 13-14 kundan so'ng unib chiqdi. Sug'orish bilan birga amarantning o'suv va rivojlanuv fazalarida organik va mineral o'g'itlar ham berilib borildi. Ikkita varyantda ham umumiy sug'rish 10-12 martani tashkil qildi. Amarant o'g'itlarni qo'llash orqali sug'orishga juda sezgir ekanligi aniqlandi, bu yashil massa va urug'larning yuqori hosilini ta'minlaydi.[2]

XULOSA

Samarqand viloyati Jomboy tumani tuproq iqlim sharoitida amarant o'simligi o'sishi, rivojlanishi, agrotexnikasi, sug'orish meyorlari va mudatlari o'rganilmoqda. Tajriba natijasida amarant o'simliklar o'sib rivojlanishida muntazam ravishda suv va oziq moddalar muhim o'rin tutadi. Kuzatuvlar natijasida suv tejamkorligi amarant o'simligida Nazoratsiz varyantda ham o'simlikning rivojlanishi, o'sishi meyorda bordi.

FOYDALANILGAN MANBALAR

1. Shahodatkhon Talatbek qizi Saidganieva ssaidganiyeva@mail.ru "Science and Education" Scientific Journal May 2021 / Volume 2 Issue 5
2. Ojiganov G.U., 1993; Kshnikatkina, A.N., 2003

INTERNET SAYTLAR

1. <https://lex.uz/docs/-5884584>